

MUSIQA MADANIYATI FANI O'QITUVCHILARINING BILIM DARAJASI VA KASBIY MAHORATINI ANIQLASH BO'YICHA MILLIY BAHOLASH TIZIMI UCHUN TEST VARIANTI TAFSILOTI

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining bilim darajasi hamda kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash tizimi doirasida **musiqa madaniyati fanidan** talabgorlarning bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

I. TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH UCHUN ASOS BO'LUVCHI ME'YORIY HUJJATLAR

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-391-son qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Musiqa madaniyati fani va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasi hamda kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 17-oktabrdagi 652-son qarori;

- Musiqa madaniyati faniga oid amaldagi (bakalavriat va umumta'lim) davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari.

II. QAMRAB OLINGAN BO'LIMLAR

Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari asosida musiqa madaniyati fanining quyidagi bo'limlari qamrab olinadi:

1. Musiqa nazariyasi
2. Musiqa tarixi
3. Musiqa o'qitish metodikasi
4. O'zbek xalq musiqa ijodi

III. TEST TOPSHIRIQLARINING TURLARI

Y-1–bitta to'g'ri javobga ega bo'lgan muqobil javobli yopiq test topshirig'i;

Y-2–moslashtirishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test topshirig'i;

O-1–qisqa javobni talab qiladigan ochiq test topshirig'i;

IV. MUSIQA MADANIYATI FANIDAN TEST VARIANTI FORMATI

Bob	Bob nomi	Bo'lim	Bo'lim nomi	Topshiriqlar soni	Savollar soni	Test turi
1	Musiq nazariyasi	1	Musiqiy tizim	25	1	Y-1
		2	Nota yozuvi tizimi		2	Y-2
		3	Ritm. Metr. Oddiy metr. Metrning murakkab va boshqa turlari. Temp		4	Y-2
		4	Intervallar		3	O-1
		5	Akkord. Uchtovushlik		2	Y-1
		6	Lad. Major ladi va tonalliklari. Minor ladi va tonalliklari. Parallel, nomdosh, engarmonik teng tonalliklar. Xalq musiqasi ladlari		5	Y-1
		7	Tabiiy major va minor intervallari. Garmonik major va minor intervallari. Xromatik intervallarning yechilishi		3	Y-1
		8	Dominantseptakkord		5	Y-1
2	Musiq tarixi	1	O'zbek kompozitorlari ijodida vokal va cholg'u musiq janrlari	18	2	Y-1
		2	O'zbek kompozitorlari ijodida sahnaviy musiq janrlari - musiqali drama, opera, balet		4	Y-1
		3	O'zbek kino musiqasi. O'zbek estrada musiqasi		3	Y-1
		4	I. S. Bax ijodi		1	Y-1
		5	Klassitsizm. K. V. Glyuk opera islohoti. I. Gaydn ijodi		2	Y-1
		6	V. Motsart ijodi		2	Y-1
		7	L. Betxoven ijodi		2	Y-1
		8	Romantizm. F. Shubert ijodi		2	Y-1
3	Musiqani o'qitish metodikasi	1	Musiq madaniyati fanini o'qitishga qo'yiladigan talablar	21	1	O-1
		2	Fanlararo integratsiya		2	O-1
		3	Musiq fanida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va texnik o'qitish vositalari		2	O-1
		4	Xonandalar ovozlari tavsifnomasi va diapazoni		2	O-1
		5	Bolalar ovozlari		1	O-1
		6	Qo'shiqlarning badiiy va musiqiy tahlili		1	O-1
		7	Musiq o'qitish metodikasi kursi va Shaxsni shakllantirish da musiqaning roli		1	O-1

		8	Musiqiy ta'limning maqsad, vazifalari va mazmuni		1	0-1
		9	Umumiy musiqiy ta'limning uslublari. Musiqa idroki va tinglash madaniyati shakllantirish uslublari		1	0-1
		10	1-2 sinflarda musiqa o'qitishning vazifalarni va mazmuni		1	Y-1
		11	3-4 sinflarda musiqa o'qitishning vazifalarni va mazmuni		1	Y-1
		12	5-6-sinfda musiqa o'qitishning vazifalarni va mazmuni		1	Y-1
		13	7-sinfda musiqa o'qitishning vazifalarni va mazmuni		1	Y-1
		14	Xorijiy mamlakatlarda musiqa talimi tizimi		5	Y-1
4	O'zbek xalq musiqa ijodi	1	O'zbek xalq musiqa ijodining shakllanishi va uning tarixiy rivoji	16	1	Y-1
		2	O'zbek xalq musiqa ijodida mahalliy uslublari va musiqa cholg'ulari		2	Y-1
		3	An'anaviy kasbiy musiqa – ashula va katta ashula janrining tarixiy va ijrochilik an'analari		2	Y-1
		4	O'zbek mumtoz musiqasi		1	Y-1
		5	Shashmaqom		6	Y-1
		6	Xorazm maqomlari		4	Y-1
		JAMI				
Test topshiriqlarini bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt – 180 daqiqa.						

V. FAN MAZMUNI TARKIBI

№	Baholanadigan mazmun elementi
1.	MUSIQA MADANIYATI
1.1	<p style="text-align: center;">Musiqa nazariyasi</p> <p>Musiqa san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Musiqaning asosiy ifoda vositalari. Musiqiy tovush va uning xususiyatlari. Musiqiy tizim tovushqatori. Tovushlarni belgilash harfiy tizimi. Yarim ton va butun ton. Asosiy va hosila pog'onalar. Alteratsiya belgilari. Diatonik hamda xromatik yarim tonlar va butun tonlar. Diapazon, registr, tovushlar engarmonizmi.</p>
1.2	<p style="text-align: center;">Musiqa tarixi</p> <p>Chet el va o'zbek musiqasi madaniyati tarixiy taraqqiyoti, asosiy yo'nalishlari, janr va shakllari haqida ma'lumot berish, jahon klassik musiqasiga xos bo'lgan badiiy ifoda vositalarini va turli xil janrdagi asarlarning mazmunini idrok etishga o'rgatish, g'arbiy Yevropa va rus kompozitorlarining ijodiyoti hamda badiiy jihatdan ahamiyatli asarlari bilan tanishtirish, har bir kompozitorning kasbiy mahorat jihatlarini aks ettiruvchi xususiyatlar.</p>
1.3	<p style="text-align: center;">Musiqani o'qitish metodikasi</p> <p>Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqani o'qitish metodikasi fanining boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqasi va integratsiyasi ko'rib chiqiladi. Ushbu fan pedagogika fanlari tizimidagi o'rniga alohida e'tibor qaratilib, uning pedagogikaning ajralmas tarkibiy qismi ekani asoslab beriladi. Maktabda musiqani ta'limi va tarbiyasining mazmuni, tashkil etilish shakllari, metodlari va vositalari haqida asosiy nazariy bilimlar taqdim etiladi. Shu bilan birga, musiqani o'qitish metodikasi 4 fanining maqsadi, vazifalari va tarkibiy yo'nalishlari aniqlanadi hamda uning amaliy ahamiyati yoritiladi. Musiqani san'ati va uning asosiy xususiyatlari. Estetik tarbiya tushunchasi va uning mazmuni. Shaxsni shakllantirishda musiqaning tutgan o'rni va ta'siri. Musiqani san'atining tarbiyaviy ahamiyati. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash jarayonida musiqaning roli. Musiqani asarlarining inson kayfiyatiga ta'siri va emotsional holatni ifodalash imkoniyati. Musiqani asarlarning g'oyaviy mazmuni va uning tarbiyaviy ta'siri.</p>
1.4	<p style="text-align: center;">O'zbek xalq musiqasi ijodi</p> <p>O'zbek xalqining an'anaviy musiqiy madaniyatining shakllanishi va tarixiy taraqqiyot jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan. Xalq musiqasi ijodining ko'p qatlamli tabiati, uning marosimlar, urf-odatlar, diniy e'tiqodlar va ijtimoiy hayot bilan uzviy aloqadorligi tahlil etiladi. Xususan, og'zaki an'anaga asoslangan professional musiqiy yo'nalishlar, ustoz-shogird maktablari, shuningdek, marosim musiqasi va folklor shakllarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari ilmiy yondashuv</p>

VI. MUSIQA MADANIYATI FANIGA OID KOGNITIV KO'NIKMA DARAJALARI

<p>Quyi kognitiv daraja</p> <p><i>(Bilish, tushunish va qo'llash)</i></p>	<ul style="list-style-type: none"> - Musiqa nazariyasi elementlari — ritm, metr, temp, intervallar, akkordlar, lad va tonalliklar haqida asosiy ma'lumotlarni tushunish; - O'zbek va jahon kompozitorlari ijodi, janrlar, klassitsizm va romantizm davrlari haqida berilgan faktlarni topa olish va anglash; - Musiqa o'qitish metodikasi: o'qitish talablari, AKT vositalari, ovoz turlari, qo'shiqlarning oddiy tahlili, boshlang'ich va yuqori sinflarda o'qitish mazmunini tushunish; - O'zbek xalq musiqasi — mahalliy uslublar, ashula, maqomlar, cholg'ular va mumtoz musiqqa haqidagi asosiy ma'lumotlarni bilish; - Musiqiy tizim, lad-tonalliklar, intervallar, akkordlar va ritmik tuzilmalarni tahlil qilish va ularning badiiy funksiyasini aniqlash. - Kompozitorlar ijodi, musiqiy janrlar va tarixiy davrlar o'rtasidagi farqlarni tahlil qila olish; - Xalq musiqasi, maqom yo'llari, ijrochilik maktablari va uslubiy xususiyatlarni chuqur tahlil qilish hamda ulardan amaliy vazifalarda foydalanish;
---	--

VII. MUSIQA MADANIYATI FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI YORDAMIDA TEKSHIRILADIGAN BILIM, KO'NIKMALAR

Musiqa madaniyati faniga oid test topshiriqlari talabgorlarning nazariy bilimlarini o'zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan topshiriqlardan iborat. **Mazkur test topshiriqlarini ishlab chiqishda amaldagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilab ko'rsatilgan bilim, ko'nikmalar asos qilib olindi.**

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar	
MUSIQA MADANIYATI	ijro amaliyoti va musiqqa savodi kompetensiyasi	<p>Musiqa nazariyasining asosiy tushunchalari — musiqiy tizim, nota yozuvi, ritm va metr, temp, intervallar, akkordlar, lad va tonalliklar, septakkordlar hamda xalq musiqasi ladlarining nazariy va amaliy xususiyatlari puxta o'zlashtiriladi. Musiqiy birliklarning funksional bog'liqligi aniqlanadi, musiqiy materiallar ilmiy asosda tahlil qilinadi, nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan integratsiya qilinadi. Musiqiy savod, nazariy tahlil ko'nikmalari, eshituv malakalari va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va yondashuvlar samarali qo'llaniladi.</p>

		<p>Musiqqa tarixi fanining asosiy tushunchalari, janr va yoʻnalishlari, shuningdek, oʻzbek va jahon kompozitorlari ijodi puxta oʻzlashtiriladi. Oʻzbek kompozitorlari ijodidagi vokal, cholgʻu, sahnaviy (musiqali drama, opera, balet), kino va estrada musiqasi janrlari tushuniladi va tahlil qilinadi. Shuningdek, I. S. Bax, K. V. Glyuk, I. Gaydn, V. Motsart, L. Betxoven, F. Shubert, R. Shuman, N. A. Rimskiy-Korsakov, P. I. Chaykovskiy, E. Grig kabi jahon kompozitorlarining ijodi va ularning musiqiy uslubiy xususiyatlari chuqur oʻrganiladi. Musiqiy asarlar tarixiy, madaniy va estetik kontekstda tahlil qilinadi, janrlar va uslubiy oqimlar oʻrtasidagi bogʻliqlik aniqlanadi, musiqqa tarixini kompleks tushunishga asoslangan nazariy va amaliy kompetensiyalar shakllantiriladi.</p>
	<p>Tanqidiy va ijodiy fikrlash kompetensiyasi</p>	<p>Musiqqa taʼlimi va oʻqitish metodikasi asoslari, musiqiy taʼlimning maqsad va vazifalari, umumiy va maktab musiqiy taʼlim uslublari, fanlararo integratsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish tizimli oʻzlashtiriladi. Xonandalar va bolalar ovozlari, ularning tavsifi va diapazoni tushuniladi, qoʻshiqlarning badiiy va musiqiy tahlili amalga oshiriladi. Maktab bosqichlariga mos musiqani oʻqitish mazmuni, metodikasi va vazifalari 1–7-sinflarda aniqlanadi. Shuningdek, shaxsni shakllantirish jarayonida musiqqa taʼlimining roli va xorijiy mamlakatlardagi musiqqa taʼlimi tizimlari chuqur oʻrganiladi, musiqqa darslarini rejalashtirish, tashkil etish va baholashga qaratilgan nazariy va amaliy kompetensiyalar shakllantiriladi.</p>
		<p>Oʻzbek xalq musiqqa ijodining shakllanishi va tarixiy rivoji, mahalliy uslublar, anʼanaviy kasbiy musiqiy janrlar — ashula va katta ashula, shuningdek mumtoz musiqqa, Shashmaqom va Xorazm maqomlari chuqur oʻrganiladi. Musiqiy materiallar tarixiy, madaniy va ijrochilik kontekstida tahlil qilinadi, janr va uslubiy xususiyatlar aniqlanadi, oʻzbek xalq musiqqa ijodini kompleks tushunishga asoslangan nazariy va amaliy kompetensiyalar shakllantiriladi.</p>

VIII. BAHOLASH MEZONLARI

Test natijalari xalqaro baholash metodikasi – Rash modeli asosida hisoblanadi.

**Izoh: Mazkur hujjatga aprobatsiya natijalari hamda vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlari asosida qoʻshimchalar, oʻzgartirishlar va tuzatishlar kiritilishi mumkin.*

MUSTAQIL OʻQISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN ASARLAR:

1. G. Ibraximjonova “Musiqqa nazariyasi”. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent. TDPU. 2022–y.

2. G.Sharipova "Musiqqa o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma. Toshkent. TDPU. 2012-y.
3. U.U.Mirzaxmedov "Umumta'lim maktablarining musiqqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun o'quv metodik qo'llanma". 1-sinf. Novda. 2025-y.
4. U.U.Mirzaxmedov "Umumta'lim maktablarining musiqqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun o'quv metodik qo'llanma". 2-sinf. Novda. 2024-y.
5. U.U.Mirzaxmedov "Umumta'lim maktablarining musiqqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun o'quv metodik qo'llanma". 3-sinf. Novda. 2025-y.
6. U.U.Mirzaxmedov "Umumta'lim maktablarining musiqqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun o'quv metodik qo'llanma". 4-sinf. Novda. 2025-y.
7. U.U.Mirzaxmedov "Umumta'lim maktablarining musiqqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun o'quv metodik qo'llanma". 5-sinf. Novda. 2024-y.
8. U.Mirzaxmedov "Keling, birga kuylaymiz". O'quv qo'llanma. Tafakkur qanoti 2017-yil
9. Y.V.Uvarova, N.P.Cheryomuxina Musiqqa savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. 2025. Novda.
10. N.P.Cheryomuxina Musiqqa savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. 2023. Novda
11. N.P.Cheryomuxina Musiqqa savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. 2023. Novda.
12. N.P.Cheryomuxina Musiqqa savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. 2023. Novda.
13. U. U. Mirzaxmedov, N. P. Cheryomuxina, A. M. Abdullayev. Musiqqa. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 2024. Novda
14. S. Begmatov. Musiqqa. 6-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 6-nashri, "G'afur G'ulom ijodiy uyi" 2017.
15. O.Ibrohimov Musiqqa. 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan va to'g'ri nashri, "G'afur G'ulom" 2017.
16. A.Lutfullayev "Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti" O'quv qo'llanma. Toshkent. TDPU. 2024-y.
17. O.Ibrohimov "Maqom asoslari" Toshkent "Yuron-Iqbol"- 2018
18. I.Ganiyeva "Sharq xalqlari musiqqa tarixi" Toshkent-2021
19. S. Begmatov "O'zbek musiqqa tarixi". Toshkent-2018 "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018
20. "Musiqqa tarixi". O. A. Ibrohimov, G'. M. Xudoyev Toshkent - 2018 "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil
21. D.Omonullayeva "Estrada xonandalik" Toshkent -2007-y
22. U.Mirzaxmedov "Biz orkestr tuzamiz" o'quv metodik qo'llanma Toshkent 2025-yil
23. B. Shamaxmudova "Xor o'qitish metodikasi" "Musiqqa" 2015
24. Q.Panjiyev, D.Salimova "Vokal va zamonaviy musiqqa" . O'quv qo'llanma. Toshkent "Innovatsion-ziyo" 2019-y.